

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 11 - fevral

51-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi PQ-47-sonli qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi PQ-47-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga muddatli harbiy xizmatga chaqirilish davrida chaqiruv yoshidagi fuqarolarga qulay sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4630-sonli qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi PQ-47-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

a) Chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2023-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi;

harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega

bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv davrida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olinishi belgilanganligi;

b) Muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilar 2023-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilishi topshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi Rahbariyat kengashi (keyingi o‘rinlarda Rahbariyat kengashi deb ataladi) tarkibi 1- ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi yig‘in punktida harbiy-tibbiy komissiya (keyingi o‘rinlarda harbiy-tibbiy komissiya deb ataladi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

2023-yilgi muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatga chaqirish mavsumini sifatli tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nukus shahri va tumanlar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4630-sonli qaroriga muvofiq;

4-ilovadagi namunaga asosan “Shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo‘limlari huzuridagi Qurolli Kuchlarni butlash komissiyasi”;

5-ilovadagi namunaga asosan “Shahar va tumanlar hududiy komissiyasi”;

6-ilovadagi namunaga asosan “Shahar va tumanlar hududiy tibbiy komissiyasi” tarkiblarini tasdiqlasin.

5. Fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatlarga chaqirish, safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatga olish bo‘yicha barcha komissiya (rahbariyat kengashi, harbiy-tibbiy komissiya, “shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo‘limlari huzuridagi Qurolli Kuchlarni butlash komissiyasi”, “shahar va tumanlar hududiy tibbiy komissiyasi”)lar faoliyati qat'iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4630-sonli qarori talablariga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Yu.Alimov) Nukus shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda Qurolli Kuchlardan rezervga bo‘shatilgan fuqarolarni ishga joylashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (M.Qurbanov) shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo‘limlari huzuridagi hududiy tibbiy komissiyalar tarkibiga tibbiyot birlashmalaridan tegishli (jarroh, terapevt, dermatovenerolog, stomatolog, oftalmolog, otolorinologolog, psixiatr va nevropatolog) mutaxassisligiga ega shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlarini belgilangan tartibda jalb qilsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi (Q.Turdiev), Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (P.Maxsetbaev), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi (S.Turmanov) chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga tantanali ravshda kuzatish va kutib olish ma'rosimlarini yuqori saviyada tashkil etilishini va o‘tkazilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (M.Yusupov) bilan birgalikda:

2023-yil chaqiruv tadbirlari davomida Respublika yig‘in punkti hududida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash;

muddatli harbiy xizmatga jo‘natilayotgan chaqiriluvchilarni Respublika yig‘in punktidan Nukus temir yo‘l vokzaliga Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan kuzatib borilishini ta'minlash yuzasidan tegishli choralarni ko‘rsin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi (M.Omarov) Mudofaa ishlari boshqarmasi buyrtmasiga asosan 2023-yil chaqiruv tadbirlari davomida chaqiriluvchilarni shahar va tumanlar chaqiruv uchastkalaridan Respublika yig‘in punktiga olib kelish va olib qaytish uchun belgilangan tartibda avtotransport ajratsin.

11. Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasi (Q.Bekbao‘liev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Bekmurotov)ga Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Raximov), Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (P.Maxsetbaev) bilan hamkorlikda chaqiruv tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

12. “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (A.Nurimbetov), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF (X.Aymanov), “Qoraqalpoq suv ta'minoti” MChJ (R.Seitov) chaqiruv mavsumini sifatli o‘tkazish maqsadida Nukus shahar va tumanlar chaqiruv maskanlarini elektr energiyasi, gaz va suv ta'minoti bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko‘rsin.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida”gi PQ-140-sonli qarori haqida”gi 108-13-0/22-sonli

qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari A.Daniyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi
Rahbariyat kengashi
TARKIBI**

1	Ilxomov Dilshod Baratovich	-	Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugi qo‘mondonining birinchi o‘rinbosari - shtab boshlig‘i, kengash raisi
2	Embergenov Islam Baxitbaevich	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mas‘ul xodimi (kelishuv asosida)
3	Xabibov Asenbay Adilbaevich	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas‘ul xodimi (kelishuv asosida)
4	Qodirov Muxlis Muxsinovich	-	9115-sonli harbiy qism mas‘ul xodimi (kelishuv asosida)
5	Axatov Elbek O‘tkir o‘g‘li	-	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi QR bo‘yicha boshqarmasi mas‘ul xodimi (kelishuv asosida)
6	Abduraxmonov Sayduvali Abduvalievich	-	Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugi tashkiliy-safarbarlik boshqarmasi tashkiliy va chaqiruv bo‘limi boshlig‘i
7	Muratov Bexrus Mustafievich	-	ShG‘HO tarbiyaviy va mavquraviy ishlar boshqarmasi boshlig‘ining yordamchisi, harbiy psixolog
8	Raximov Ixtiyor Sapaevich	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i
9	Saydaxmedov Dilshod Majitovich	-	kengash kotibi, 21131-harbiy qism feldsheri

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi yig'in punktida harbiy-tibbiy komissiya

TARKIBI

1.	M.Shukurullaev	-	Komissiya raisi - Shimoli-g'arbiy harbiy okrugi tibbiyot xizmati boshlig'i.
2.	I.Juraboev	-	Nukus harbiy gospitali terapevt shifokori
3.	L.Yaxshimurodov	-	Nukus harbiy gospitali jarroh shifokori
4.	S.Baltabaeva	-	Nukus harbiy gospitali nevroptolog shifokori
5.	P.Tajetov	-	Nukus shahar tibbiyot birlashmasi 1-toifali shifokori, doimiy tibbiy komissiyaning quloq-burun shifokori
6.	S.Allamuratova.	-	Respublika ko'z shifoxonasi oliy toifali shifokori, harbiy-tibbiy komissiyaning ko'z shifokori
7.	I.Atamuratov	-	Respublika ruhiy-giyohvandlik dispanseri oliy toifali shifokori, harbiy tibbiy komissiyaning psixiatr-narkolog shifokori
8.	Inaeva Oral	-	Respublika bolalar tish poliklinikasi shifokori
9.	Allaniyazov Maxset	-	Respublika teri-tanosil kasalliklari dispanseri shifokori
10.	A. Shalkarova	-	QR bolalar ko'p tarmoqli tibbiy markazi o'smir va chaqiriluvchi yoshlarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limi xamshirasi
11.	Q. Usnatdinova	-	Respublika hududiy perenatal markazi hamshirasi
12.	A. Yesenbaev	-	Respublika o'smirlar despantseri xodimi
13.	M. Kazakbaeva	-	QR bolalar ko'p tarmoqli tibbiy markazi o'smir va chaqiriluvchi yoshlarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'limi xamshirasi
14.	Sh. Toremuratova	-	Respublika ko'z kasalliklari shifoxonasi hamshirasi
15.	A. Utemuratova		Respublika teri-tanosil kasalliklari despantseri hamshirasi
16.	A. Xo'jaxmedova	-	Respublika teri-tanosil kasalliklari despantseri hamshirasi
17.	J. Abduxalikova	-	Respublika o'smirlar despantseri hamshirasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

**2023-yilgi muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatga chaqirish
mavsumini sifatli tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi**

№	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ullar
1	2	3	4
1	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini navbatdagi 2023-yilgi muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga tayyorlash.	2023-yil 28-fevralgacha	Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limlari
	Chaqiruvdan oldin hududiy komissiya a'zolari, hududiy tibbiy komissiyalar tarkibi va tegishli muassasa rahbarlari bilan chaqiruvni o'tkazish masalalari bo'yicha bir kunlik metodik mashg'ulotlar o'tkazish.	2023-yil fevral oyi	Rahbariyat kengashi raisi
2	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini tabiiy gaz, suv va elektr manbayi bilan doimiy ravishda ta'minlab turish.	2023-yil mart-aprel oylari	"QQelektrtarmoqlari hududiy korxonasi" AJ, "QQsuvta'minot" MChJ, "QQhududgaz" filiali
	Respublika yig'in, shahar va tumanlar chaqiruv punktlarini aloqa vositalari, dori-darmonlar, tibbiyot va xo'jalik anjomlari, avtomobil transporti, texnik xodimlar hamda boshqa anjomlar bilan ta'minlash.	2023-yil fevral oyi	Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, Sog'liqni saqlash va Transport vazirliklari
	Mahala fuqarolar yig'inlari tomonidan chaqiriluvchilarni chaqiruv punktlariga chaqiruv qog'ozlariga asosan 100 foiz chaqirib berishlarini nazoratga olish.	chaqiruv mavsumi davomida	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
	Chaqiriluvchilarni shahar va tumanlar chaqiruv maskanlaridan Respublika yig'in punktiga olib kelish olib qaytish uchun avtotransport ajratish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash.	chaqiruv mavsumi davomida	Transport va Ichki ishlar vazirligi

3	Respublikamizda o'tgan yillar mobaynida harbiy sohaga oid qabul qilingan Qonun va Qonun osti hujjatlar, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini umumta'lim maktablari, kolledj va litseylarda ta'lim olayotgan yoshlar ongiga singdirish.	doimiy ravishda	Mudofaa ishlari boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi QR boshqarmasi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
	O'smirlarni chaqiruv maskanlarida qayd qilish davrida, o'smirlar va ularning ota-onalari bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirishga doir Qonun va qaror va boshqa hujjatlar mohiyatini tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.	chaqiruv davrida	Mudofaa ishlari boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi QR boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi
	Televidenie hamda gazeta va jurnallar orqali o'smirlar va ularning ota-onalari uchun muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirish davrida tashkil etiladigan imtixonlar hamda muddatli harbiy xizmatni o'tagandan keyin qanday imtiyozlar berilishi to'g'risida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish tavsiya etilsin.	chaqiruv davrida	QR Teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi
4	Chaqiruv maskanlarida qayd qilishdan oldin tumanlar mudofaa ishlari bo'limlariga Sud, Ichki ishlar va Prokuratura organlarida qonun buzarlilik bo'yicha hisobda turgan hamda sudlangan o'smirlarning ro'yxatlarini taqdim qilish tavsiya etiladi.	2023-yil fevral oyi	Ichki ishlar vazirligi
	Respublika yig'in punkti, shahar va tumanlar chaqiruv maskanlarida jamoat tartibini saqlash.	chaqiruv davrida	Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Mudofaa ishlari boshqarmasi
	Sababsiz chaqiruv maskaniga kelmagan chakiriluvchilarni shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga asosan chaqiruv maskanlariga olib kelinishida amaliy yordam ko'rsatish.	chaqiruv davrida	Ichki ishlar vazirligi

	Shahar va tumanlar davolash muassasalariga sogʻligi boʻyicha tuman mudofaa ishlari boʻlimi tomonidan yoʻllanma bilan yuborilgan chaqiruvchilarni oʻz vaqtida davolash ishlarini olib borish.	chaqiruv davrida	Sogʻliqni saqlash vazirligi
5	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 25-dekabrda "Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy koʻrik oʻtkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4076-sonli qaroriga asosan chaqiruv maskanlarini zamonaviy tibbiy anjomlar, asbob uskunalar (UZI, FGDS, EKG) bilan talab darajasida jihozlash.	2023-yil fevral oyi	Sogʻliqni saqlash vazirligi
	Tibbiy komissiya tarkibini qayta koʻrib chiqish va ularni malakali, tajribali tibbiy xodimlar bilan taʼminlash, oʻsmirlarni tibbiy koʻrik oʻtkazish jarayonida adolatlik va holislikni taʼminlash uchun tibbiy komissiya shifokorlarining masʼuliyatini oshirish.	doimiy ravishda	Sogʻliqni saqlash vazirligi
	Chaqiruv maskanlarida qayd qilishdan oldin shahar va tumanlar mudofaa ishlari boʻlimlariga shahar va tumanlar davolash muassasalarida sogʻligi boʻyicha hisobda turgan oʻsmirlarning roʻyxatlarini taqdim qilish.	2023-yil fevral oyi	Sogʻliqni saqlash vazirligi
6	2023-yil muddatli harbiy xizmatga chaqirish tadbirlariga tayyorgarlik koʻrish va oʻtkazish ishlarini nazoratga olish.	doimiy ravishda	Chaqiruv komissiyalari raislari

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

**Shahar va tumanlar Mudofaa ishlari bo'limlari huzuridagi Qurolli Kuchlarni butlash
komissiyasi**

TARKIBI

1.	Lavozimi bo'yicha	-	Komissiya raisi - shimoli-g'arbiy harbiy okrugi bo'lim boshlig'i,
2.	Lavozimi bo'yicha	-	QR Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi
3.	Lavozimi bo'yicha	-	QR Favqulodda vaziyatlar mas'ul xodimi
4.	Lavozimi bo'yicha	-	QR DXX chegara qo'shinlari mas'ul xodimi
5.	Lavozimi bo'yicha	-	QR Milliy gvardiyasi bo'yicha mas'ul xodimi

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
5-ilova

**Shahar va tumanlar Mudofaa ishlari bo'limlari huzuridagi hududiy komissiyasi
TARKIBI**

1.	Lavozimi bo'yicha	-	Komissiya raisi - shahar va tuman hokimlarining o'rinbosarlari
2.	Lavozimi bo'yicha	-	Komissiya raisi o'rinbosari - shahar va tuman mudofaa ishlari bo'limi boshliqlari
3.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinbosari
4.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining o'rinbosari
5.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlardagi hududiy tibbiy komissiya katta shifokori
6.	Lavozimi bo'yicha	-	Komissiya kotibi - shahar va tumanlar mudofaa ishlari bo'limi chaqiruv bo'linmasi boshlig'ining yordamchisi

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 11 fevraldagi
51-13-0-Q/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar Mudofaa ishlari bo'limlari huzuridagi hududiy tibbiy komissiyasi

TARKIBI

1.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi jarroh shifokori
2.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi terapevt shifokori
3.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi dermatovenerolog shifokori
4.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi stomatolog shifokori
5.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi oftalmolog shifokori
6.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi otorinolaringolog shifokori
7.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi psixiatr shifokori
8.	Lavozimi bo'yicha	-	Shahar va tumanlar tibbiyot birlashmasi nevropatolog shifokori

Izoh: Hududiy tibbiy komissiya katta shifokori vazifasi jarroh yoki terapevt shifokor zimmasiga yuklatiladi